

“TASDIQLAYMAN”

**“O‘zmilliybank” AJ
Yangiobod BXM
boshqaruvchisi v.b.**

D.S.Sidikov

“12” 06 2026 yil

“O‘zmilliybank” AJ Toshkent shahar Bosh boshqarmasining 2026 yil 3- iyundagi 01-423/09-sonli xatida keltirilgan vazifalar yuzasidan Yangiobod bank xizmatlari markazida o‘tkazilgan “Korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish yo‘nalishida bank xodimlarining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bo‘yicha huquqiy-targ‘ibod va profilaktika chora-tadbirlari to‘g‘risidagi yig‘ilish bayonnomasi

2026 yil “12”iyun

Toshkent shahar

12 - sonli Bayonnoma

**Raislik qiluvchi: “O‘zmilliybank” AJ Yangiobod BXM
Boshqaruvchisi v.b. D.S.Sidikov**

**Qatnashdilar: “O‘zmilliybank” AJ Toshkent shahar Bosh boshqarmasi
Yangiobod BXM va G‘alaba BXO rahbar xodimlari va bo‘lim xodimlari.**

K U N T A R T I B I:

1. “O‘zmilliybank” AJ Yangiobod BXMdagi korrupsiyani oldini olish, xodimlarda korrupsiyaning barcha ko‘rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish va bu borada ularning malakasini oshirish.

2. “O‘zmilliybank” AJning Ichki mehnat tartibi qoidalari, “O‘zmilliybank xodimining tashqi ko‘rinish o‘dobi”da qayd qilib o‘tilgan talablardan kelib chiqib, muomala madaniyati qoidalari, xodimlarning mehnat va ijro intizomini yanada mustahkamlash chora tadbirlari ijrosini nazoratga olish.

Majlis Yangiobod BXMdagi barcha bo‘lim boshliqlari, mutaxassis xodimlar ishtirokida boshlandi. “O‘zmilliybank” AJ Yangiobod BXM boshqaruvchi birinchi o‘rinbosari A.Nig‘matov majlisni kirish so‘zi bilan ochib, qatnashchilarni “O‘zmilliybank” AJ Toshkent shahar Bosh boshqarmasi boshlig‘ining fuqarolar va tadbirkorlar hamda bank xodimlariga Murojaatnomasi bilan tanishtirdi.

Shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash va ularga chek qo‘yish- Korrupsiyaga qarshi davlat Siyostining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Chunki huquqbuzarlarga nisbatan javobgarlikning muqarrarliligi ta‘minlanmasdan turib, korrupsiyaga qarshi samarali kurashishning imkoniyati mavjud emas. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi va boshqa

qonunlarida korrupsiyaga nisbatan jiddiy jazo choralari nazarda tutilib, bugungi kunga kelib yanada kuchaytirib borilmoqda. "O'zmilliybank" AJ va uning tarkibiy tuzilmalarida korrupsiyaviy holatlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar dolzarbligi va bu borada xodimlarning javobgarligi, shaxsiy pozitsiyasi muhimligi xaqida aytib, Qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish hamda "O'zmilliybank" AJ Raisi tomonidan qo'yilgan vazifalar va talablar yig'ilish qatnashchilariga yetkazildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasida bu kabi illatga qarshi kurash va uni oldini olishga qaratilgan kompleks tadbirlar olib borilayotganligi, bu davlat ichki siyosatining uzviy bir bo'lagi ekanligi ta'kidlab o'tildi.

"O'zmilliybank" AJ Toshkent shahar Bosh boshqarmasi Xavfsizlik, rejim va axborotni himoyalash boshqarmasi bosh mutaxassisi B.Xashimov "O'zmilliybank" AJ Yangiobod BXMdagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni oldini olish yuzasidan bir qator targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilayotganligi, korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini o'rganish hamda bartaraf etish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish choralari ko'rishi muhim vazifalardan biri ekanligi ko'rsatib o'tildi. "O'zmilliybank" AJ Toshkent shahar Bosh boshqarmasi Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi bosh mutaxassisi K.Israyilova tomonidan Ichki buyruq va nizomlarni buzish holatlarini oldini olishga qaratilgan, xodimlarning bu boradagi bilim va saviya darajasini yanada ko'tarish yo'nalishidagi amaliy xarakatlarni uzuluksiz davom ettirishga erishish tavsiya etildi.

"O'zmilliybank" AJning 2020-yil 04-yanvardagi 2/17-sonli xdfu Farmoyishi va O'zmilliybank AJ Boshqaruv Raisining birinchi o'rinbosari S.Usmanbekovning 2023-yil 27-sentabrdagi 02/1-885/17 sonli xdfu xatiga asosan Toshkent shahar Bosh boshqarmasining tarkibiy bo'linmalari va tasarrufidagi BXM/BXOlar maxsus ruxsatnomaga ega xodimlarning xorijga chiqish pasportlari bankda saqlanishi zarurligi to'g'risida ta'kidlab o'tildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan maqsadlarni samarali amalga oshirish uchun asosiy e'tiborni, bank Rahbariyati tomonidan faoliyatimizda mavjud xato-kamchiliklarni bartaraf etish yo'lida olib borilayotgan say'i-harakatlar zaminida xodimlarning siyosiy ongini yuksaltirish, huquqiy madaniyatini oshirish hamda korrupsiyaviy harakatlarga qarshi immunitetni shakllantirishga qaratish kerakligi ta'kidlandi.

Yangiobod BXM bo'yicha Ichki nazorat bo'limi Compliance officer bosh mutaxassisi S.Jabborova so'zga chiqib Xodimlar orasida korrupsiyaviy va iqtisodiy jinoyatlarni oldini olishda birdan bir chora – "O'zmilliybank" AJ boshqaruvi tomonidan berilayotgan topshiriqlarni o'z vaqtida sifatli bajarish, har bir yo'nalish bo'yicha chiqarilgan normativ-huquqiy hujjatlarga to'liq rioya qilinishi lozimligi bilan bog'liq ekanligini yig'ilish qatnashchilariga aytib o'tdi.

Bu borada tarkibiy tuzilmalar rahbarlarining roli kattaligiga e'tibor qaratildi. Bo'lim boshliqlari jamaoda vujudga kelishi mumkin bo'lgan har qanday xuquqbuzarliklarni aniqlash va ularni profilaktika qilishga qaratilgan takliflarni o'z vaqtida BXM rahbariyatiga taqdim etib borishlari talab qilinadi. Bank sohasida mavjud va sodir etilgan qonunbuzarliklar misolida barcha ishtirokchilarni ogohlikka, o'z vazifasini vijdonan va sidqidildan bajarishga chaqirildi.

Tadbir so'nggida Yangiobod bank xizmatlari markazining barcha xodimlari ogohlikka chaqirilib, ularning o'z xizmat vazifalariga vijdonan yondashishlari zarurligi, har bir mijoz bilan muloqatda ahloq-odob doirasidan chetga chiqmagan holda, bank Standart qoidalariga to'liq rioya qilib xizmat olib borishlari zarurligi, xizmatlar sifati mijozlar jalb qilishning yagona yo'li ekanligi, hozirgi kunda "O'zmilliybank" AJ Toshkent

shahar Bosh boshqarmasi yuqori ko'rsatgichlarga erishishi zaminida shu jamoaning katta mehnati turganligini, xodimlarning jipsligi, ko'p yillardan beri bank sohasida xizmat qilib kelayotgan tajribali xodimlar yosh xodimlarga ustoz-shogird ananalariga amal qilgan holda to'g'ri yo'l ko'rsatishlaridir.

Xodimlar o'rtasida olib borilayotgan korrupsiyaga qarshi targ'ibot-tashviqot tadbirlar ta'sirchanligini yanada oshirish. Huquqbuzarlikni sodir qilgan xodimlarga nisbatan jazo muqarrarligi hamda o'z vazifalarini sidqidildan bajarayotganlarlarga bank rahbariyati tomonidan rag'batlantirish ko'zda tutilganligi to'g'risida ta'kidlab o'tildi.

Majlis yakuniga ko'ra quyidagi vazifalar belgilandi:

QAROR QILADI:

- "O'zmilliybank" AJ Yangiobod BXM hamda G'alaba BXOlarda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda bank bo'lim raxbarlari tomonidan ushbu yo'nalishda profilaktik tadbirlar o'tkazilishi belgilansin.
- Bank jamoasida sog'lom muhitni saqlash, xodimlar o'rtasida korrupsiyaning har qanday ko'rinishiga murosasizlikni shakllantirish choralari ko'rilsin.
- Bo'lim boshliqlari va sho'ba mudirlari ushbu yo'nalishda qo'l ostidagi xodimlari uchun shaxsiy o'rnak bo'lishlari shartligi doimo uqtirilsin.
- Bank bo'lim boshliqlari tomonidan o'z xodimlarining xizmat majburiyatlarini qanday bajarayotganini muntazam nazorat qilib borish hamda xodimlarning xizmat vazifalariga oid bo'lmagan ishlar bilan shug'ullanishiga yo'l qo'yilmayslik bo'yicha mas'ul xodimlar tomonidan nazorat o'rnatilsin.

**Xavfsizlik, rejim va axborotni
himoyalash boshqarmasi
bosh mutaxassisi**

**Ichki nazorat bo'limi
Yangiobod BXM bo'yicha
Compliance officer**

Yig'ilish kotibi:



B.G.Xashimov



S.A.Jabborova



N.M.Yuldasheva

Қатнашганлар:

тоббирове Левара А	
Мухомедово Гулмурхоев М	
Радабаева Шахназа Б.	
Каримов Б. С.	
Фильов Т.Т	
Мерошилов К.И	
Собиралиев Т.Н	
Абдуваходова М	
Мирмохитова С.	
Ахмедово	
Тан Мамарита	
Идрисова Н. И.	
Идрисов О.С.О.	
Саидиллоев В. О	
Ахмедов Я	
Ахмедов Я	
Ахмедов М. В	
Хочиров Б.Н.	
Ахмедово М	
Жирева М	
Касинова И.Х	
Норхобилова Н.А.	
Мирмохитово Ф. Т	
Ахмедов В. Т	
Назаров М.Б.	

[illegible]

